

O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDA MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI IQTISODIY ALOQALARING AHAMIYATI

Otajonova Dilnura Otajonovna
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi
E-mail: dilnuraotajonova1211@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tashqi siyosatda MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatish O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi. Ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rin egallaydigan jihatlar haqida fikrlar bayon etiladi. Ushbu masala iqtisodiy modellar, qonuniyatlar va nazariy yondashuvlar, shuningdek, tegishli iqtisodiy maktablar olimlari fikrlarini tahlil qilgan holda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy integratsiya, erkin savdo, investitsiyalar, eksport, import, mintaqaviy hamkorlik, infratuzilma, ishlab chiqarish.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, iqtisodiy jihatdan rivojlanish davlat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri edi. Hukumat iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi savdo yo'llarini ochish va investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishishga intildi. Va, o'z navbatida, MDH davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bu davlatlar O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan hisoblanadi. Ushbu mintaqadagi davlatlar bilan amalga oshiriladigan savdo-iqtisodiy aloqalar O'zbekistonning eksportini kengaytirish va xorijdan investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini yaratadi. Ular o'rtasida erkin savdo shartnomalari va iqtisodiy integratsiya mavjud bo'lib, bu iqtisodiy aloqalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, MDH davlatlaridagi resurslar va bozorlarga kirish imkoniyati O'zbekistondagi ishlab chiqarish quvvatini oshirishga yordam beradi. Ular orqali davlat o'z tovarlarini nafaqat boshqa MDH davlatlariga, balki Yevropa va Osiyo mintaqalariga ham eksport qila olishi mumkin. Tabiiyki, hududiy transport va logistika tarmoqlari O'zbekistonning eksport salohiyatini kuchaytiradi va mamlakatni tranzit davlat sifatida rivojlantiradi. Davlatlarning o'zaro integratsiyalashuvi transport, ishlab chiqarish, energetika va boshqa sohalarda ham mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga hissa qo'shadi. Bu yangi ish o'rnlari kengayishiga ham olib kelishi mumkin.

MDH mamlakatlaridagi investitsiyalarni O'zbekistonga jalb qilish orqali mamlakat infratuzilmasi, sanoati va texnologiyalari yangilanadi, buning natijasida ishlab chiqarish ancha kengayadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning eng muhim jihatlaridan biri bu mehnat migratsiyasidir. Xususan, O'zbekiston aholisining katta

qismi MDH mamlakatlarida mehnat qilishmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ishchi kuchining chetga chiqishiga va mamlakatga remittanslar, ya’ni pul uzatish kirishini ta’minlashga hamda iqtisodiy barqarorlikka olib keladi. Shu bilan bir qatorda, bu mehnat tajribasini rivojlantirish va xalqaro tajribalarni mamlakatga olib kelishga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan savdo aylanmasi mustaqillik yillarida sezilarli darajada edi. Dastlabki davrda ular asosiy savdo hamkorlari bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik Turkiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan aloqalar kuchaya boshladi. Yaqin yillar ichida esa, 2020-yilning oxirlariga kelib, O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari ulushi 32,6 foizni tashkil etgan. Oxirgi yillarda MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasining pasayishi kuzatilgan. Savdoning eng yuqori hajmlari Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston davlatlari bilan qayd etilgan. Rossiya O‘zbekistonga eng ko‘p investitsiya kiritadigan davlat hisoblanadi. O‘zbekiston MDH davlatlariga asosan paxta, to‘qimachilik mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari va mineral o‘g‘itlar eksport qiladi. Importida esa metallar, mashina va uskunalar, kimyo mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlari asosiy o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishida MDH davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarning ahamiyati SWOT tahlili bo‘yicha:

Kuchli tomonlar (Strengths):

—MDH davlatlari bilan geografik yaqinlik transport xarajatlarini kamaytiradi va savdo-sotiqni osonlashtiradi. Mavjud temir yo‘l va avtomobil yo‘llari, shuningdek, keljakdagi transport loyihalari savdo hajmini oshirish imkoniyatini beradi. Masalan, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi chegaradosh hududlar orqali tovarlarni tashish nisbatan arzon va tez amalga oshiriladi. “Turkiston” temir yo‘l liniyasi va avtomobil yo‘llari bu aloqani yanada mustahkamlaydi. Keljakda “Xitoy-O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Qozog‘iston” temir yo‘l yo‘nalishi qurilishi savdo hajmini sezilarli darajada oshiradi.

—Uzoq yillik hamkorlik tufayli savdo munosabatlari o‘rnatilgan, biznes amaliyotlari va savdo qoidalari ma’lum darajada tushuniladi. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi uzoq yillik savdo munosabatlari, savdo operatsiyalarini boshqarishda osonlikni ta’minlaydi. Bu ikki davlat o‘rtasida o‘rnatilgan ishonch va tajriba mavjud.

—MDH davlatlariga mehnat migratsiyasi orqali pul o‘tkazmalari O‘zbekiston iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shadi. Xususan, Rossiya va Qozog‘istonda ishlayotgan o‘zbekistonlik migrantlarning pul o‘tkazmalari yillik yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini tashkil etadi, bu esa ichki talab va iste’molni qo‘llab-quvvatlaydi.

—MDH davlatlari O‘zbekiston uchun energiya resurslari manbai hisoblanadi. Hamkorlik orqali energiya xavfsizligi ta’minlanadi. O‘zbekistonning Rossiyadan gaz import qilishi va Qozog‘istondan neft mahsulotlarini olish imkoniyati energiya

xavfsizligini mustahkamlaydi. Bu O'zbekistonning energetika sohasidagi ishonchli ta'minotchilarga ega ekanligini ko'rsatadi.

—MDH davlatlaridan O'zbekistonga investitsiyalar kiradi, bu esa iqtisodiyotni rivojlantirishga va yangi ish o'rinalarini yaratishga yordam beradi. Rossiyaning "Gazprom" va "Lukoil" kabi yirik kompaniyalari O'zbekistonda neft-gaz sohasiga investitsiya kiritib, iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shamoqda.

— Madaniy o'xshashlik va tillarning yaqinligi ham muloqot va biznes muzokaralarini osonlashtiradi. Xususan, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtafidagi munosabatlarda buni yaqqol sezish mumkin, bu kelishuvlarga erishishni tezlashtiradi.

Kamchiliklar (Weaknesses):

—Ba'zi MDH davlatlari bilan savdo balansida O'zbekiston salbiy tomonga ega. Ya'ni import eksportdan yuqori. O'zbekistonning Rossiya bilan savdo balansidagi salbiy tomonlardan biri shuki, importning eksportdan yuqori bo'lishi O'zbekiston iqtisodiyotining importga bog'liqligini ko'rsatadi.

—Transport infratuzilmasining yetarlicha rivolanmaganligi ba'zi hollarda savdo-sotiqli ni qiyinlashtiradi. Jumladan, O'zbekiston va MDH davlatlari o'rtafidagi yo'l-transport infratuzilmasi ba'zi qismlarida eskirgan bo'lib, bu tovarlarni tashish muddatini uzaytiradi va xarajatlarni oshiradi. Chegarada kechikishlar va byurokratik jarayonlar ham muammo hisoblanadi.

—MDH davlatlarida bo'lib o'tadigan siyosiy voqealar O'zbekiston bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, geosiyosiy vaziyatdagi o'zgarishlar savdo hajmini kamaytirishi mumkin.

—Valyuta kursi o'zgarishi va to'lov tizimlaridagi muammolar O'zbekiston va MDH davlatlari o'rtafidagi savdo-sotiqa da kutilmagan xarajatlarga olib kelishi mumkin.

—Shuningdek, yana bir kamchilik shuki, MDH davlatlari bilan texnologiya almashinuvi yetarlicha samarali emas. Bu O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Imkoniyatlar (Opportunities):

—MDH doirasidagi erkin savdo zonasini kengaytirish orqali savdo to'siqlarini kamaytirish va O'zbekiston mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Jumladan, bojxona to'lovlarini pasaytirish yoki bekor qilish orqali.

—Xalqaro standartlarga javob beradigan yangi avtomobil yo'llari, temir yo'llar va logistika markazlarini qurish orqali tovarlarni tashish tezligi va samaradorligini oshirish mumkin.

—MDH davlatlari bilan birgalikda ilmiy tadqiqotlar va texnologiya almashinuvi dasturlarini yaratish imkoniyati mavjud. Masalan, qo'shma korxonalar tashkil qilish orqali buni amalga oshirsa bo'ladi.

—MDH davlatlari bilan hamkorlikda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish orqali sarmoyalarni jalb qilish va ish o‘rinlarini yaratish.

—Eng muhim imkoniyatlardan biri shuki, MDH davlatlari orqali Osiyo va Yevropa bozorlariga chiqishni diversifikatsiya qilsa bo‘ladi. Xususan, Xitoy va Yevropa Ittifoqi bozorlariga chiqishda MDH davlatlaridagi transport va logistika yo‘nalishlaridan foydalanish mumkin.

Tahdidlar (Threats):

—Jahon iqtisodiyotining inqirozi O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlariga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Masalan, jahon bozorlaridagi talabning pasayishi.

—Yevropa Ittifoqi yoki Xitoy bilan hamkorlikning rivojlanishi MDH bilan bo‘lgan aloqalarning ahamiyatini pasayishiga olib kelishi mumkin.

—Boshqa davlatlardan kelayotgan raqobat, xususan, narx bilan bog‘liq raqobat O‘zbekiston mahsulotlarining eksport salohiyatiga tahdid solishi mumkin.

—Transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun yetarli resurslarning yetishmasligi ham katta muammodir.

— Geosiyosiy omillar ham asosiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi mojaro kabi geosiyosiy voqealar O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan iqtisodiy aloqalariga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Bu transport yo‘llarining to‘sinqqa uchrashi yoki savdo shartnomalarining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy modellar:

1.David Rikardoning nisbiy afzallik nazariyasi bo‘yicha ko‘rib chiqilsa, har bir davlat o‘zi nisbatan arzonroq va samaraliroq ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan tovarlarni eksport qilishi va aksincha tovarlarni import qilishi kerak. O‘z navbatida, O‘zbekiston ham paxta, meva-sabzavot kabi mahsulotlarni eksport qiladi, MDH davlatlaridan esa mashina-uskunalar, energetika resurslarini import qiladi.

2.Gravitatsiya modeli bo‘yicha: Bunda davlatlar o‘rtasidagi savdo hajmi ularning iqtisodiy kattaligi (YalM) va ular orasidagi masofaga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Geografik yaqinlik savdo xarajatlarini kamaytiradi. O‘zbekiston MDH davlatlari bilan geografik yaqinligi sababli ushbu modeldan foyda ko‘radi. Xususan, Qozog‘iston va Rossiya bilan chegaradosh hududlar savdo-sotiqda faol ishtirok etadi.

Iqtisodiy qonuniyatlar nuqtai nazaridan mavzuni yoritish maqsadida talab va taklif qonunlari jihatidan tahlil:

Ma’lumki, agar talab oshsa, narxlar ko‘tariladi. Yoki aksincha, taklif oshsa, narxlar pasayadi. Bunda ham O‘zbekistonning MDH davlatlariga qiladigan eksporti MDH bozorlaridagi talab va taklifga bog‘liq. Pul miqdori nazariyasi bo‘yicha esa

davlatlar o‘rtasida savdo aylanmasining oshishi pul massasining ortishiga va inflyatsiya bosimining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy maktablar nazariyalarini bo‘yicha tahlil:

Iqtisodiyotda merkantilizm, klassik, Keynesian va yangi klassik maktablar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘z g‘oyalariga ega. Jumladan, merkantilizm davlatning boyligini eksportni maksimal darajada oshirish va importni cheklash orqali ko‘paytirish kerak deb hisoblaydi. Davlat aktiv savdo balansiga erishishga intilishi kerak. Agar merkantilistik nuqtai nazardan yondashilsa, O‘zbekiston eksportni (paxta, meva-sabzavot) MDH davlatlariga oshirish va importni (mashina, uskunalar) kamaytirishga harakat qilishi kerak. Lekin bu yondashuv savdo hamkorlari bilan keskinlikka olib kelishi mumkin, chunki har bir davlat o‘z eksportini oshirishga intiladi. Ammo merkantilizm savdo hamkorlariga nisbatan ziddiyatli munosabatni keltirib chiqarishi, importni cheklash iste’molchilarga zarar yetkazishi va resurslarni noto‘g‘ri taqsimlashga olib kelishi mumkinligi sababli tanqid ostiga ham olinadi.

Klassik iqtisodiyotda (Adam Smit, David Rikardo) asosiy g‘oya: Erkin savdo, qiyosiy ustunlik va davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi tarafdori bo‘lish. Davlatlar o‘zlarining qiyosiy ustunliklariga ega bo‘lgan sohalarga ixtisoslashishi va savdo qilishlari kerak. Klassik nuqtai nazardan, O‘zbekiston paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda qiyosiy ustunlikka ega, MDH davlatlari esa sanoat mahsulotlarida. O‘zbekiston bu ustunliklar asosida savdo qilib, iqtisodiy foyda olishi mumkin. Bu model davlat aralashuvini cheklashni va erkin savdoni rag‘batlantirishni tavsiya qiladi. Biroq qiyosiy ustunlik nazariyasi mehnat va kapitalning harakatsizligini, transport xarajatlarining nolga tengligini va texnologiyalarning o‘zgarmasligini taxmin qiladi. Real hayotda bu taxminlar har doim ham to‘g‘ri bo‘lavemasligi mumkin.

Keynesian iqtisodiyotga ko‘ra, davlat iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ishsizlikni kamaytirish va talabni rag‘batlantirish uchun faol rol o‘ynashi kerak. Davlat xarajatlari va soliq siyosati orqali talabni boshqarsa bo‘ladi. Ya’ni, bu holatda O‘zbekiston MDH davlatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish uchun davlat xarajatlarini infrastrukturaga, eksportni rag‘batlantirishga yo‘naltirishi mumkin. MDH davlatlaridan importni rag‘batlantirish ham ichki talabni oshirishga yordam berishi mumkin. Kamchiligi shundaki, bu yondashuv davlatning haddan tashqari aralashuvi byurokratiyani kuchaytirishi, resurslarni samarasiz taqsimlashga olib kelishi va davlat qarzini oshirishi mumkin.

Yangi klassik nuqtai nazardan, O‘zbekiston MDH davlatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirishda bozor kuchlariga tayanishi, davlat aralashuvini cheklashi, korrupsiyani kamaytirishi va mulk huquqlarini himoya qilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalari uning iqtisodiy rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga ega. Ushbu aloqalar

orqali mamlakat tashqi savdo salohiyatini oshirib, investitsiyalarni jalb etib, infratuzilma rivojlanishiga, mintaqaviy integratsiya va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mehnat migratsiyasi va tranzit imkoniyatlarini rivojlantirish orqali O‘zbekiston iqtisodiyoti global va mintaqaviy bozorlar bilan o‘zaro aloqalarini yanada mustahkamlashga intilmoqda. MDH davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar mintaqaviy integratsiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonning bu davlatlar bilan mustahkam iqtisodiy aloqalar o‘rnatishi, mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda va siyosiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeyini mustahkamlashga, xavfsizligini ta’minlashga va iqtisodiy jarayonlarni boshqarishga yordam beradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Alimov A., Ahmedov I. O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T. 2004.
2. Стровский Л.Е. «Внешнеэкономическая деятельность предприятий» Учебник. 5-е изд., перераб. и доп. - М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2011.
3. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyati to‘g‘risidagi qonuni.